

OTA-ONA VASIYLIGIDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNING HUQUQLARINI
DAVLAT TOMONIDAN HIMOYA QILISH CHORA TADBIRLARINI
TAKOMILLASHTRISH

Rashidov Mehridin Faxriddin o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

“Davlat boshqaruv huquqi” mutaxassisligi magistranti.

+998995079904. mehridinrashidov4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13924959>

Annotatsiya. Ushbu maqola ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarning huquqlarini davlat tomonidan himoya qilish chora-tadbirlarini takomillashtirishga bag'ishlangan. Maqolada qonunchilikka oid islohotlar, milliy me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurati, shuningdek, bolalarni zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash masalalari keng yoritilgan. Bolalar kodeksini qabul qilish taklifi ham ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yetim bolalar, ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalar, ijtimoiy himoya, davlat chora-tadbirlari, bolalar huquqlari, zo'ravonlikdan himoya, O'zbekiston qonunchiligi, Bolalar kodeksi, ijtimoiy xizmatlar, deinstitutionalizatsiya.

IMPROVING STATE MEASURES TO PROTECT THE RIGHTS OF CHILDREN
DEPRIVED OF PARENTAL CARE

Abstract. This article is devoted to the improvement of state protection measures for the rights of children deprived of parental custody. The article covers the issues of legislative reforms, the need to improve the national regulatory framework, as well as the strengthening of mechanisms for protecting children from violence and exploitation. A proposal to adopt a children's code has also been put forward.

Key words: orphans, children deprived of parental care, social protection, state measures, children's rights, protection from violence, legislation of Uzbekistan, Children's Code, social services, deinstitutionalization.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕР ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ
ДЕТЕЙ, ЛИШЕННЫХ РОДИТЕЛЬСКОЙ ПОМОЩИ

Аннотация. Статья посвящена совершенствованию мер государственной защиты прав детей, лишенных родительской опеки. В статье освещены вопросы законодательной реформы, необходимости совершенствования национальной нормативной базы, а также

усиления механизмов защиты детей от насилия и эксплуатации. Также выдвинуто предложение принять детский кодекс.

Ключевые слова: дети-сироты, дети, лишенные родительской опеки, социальная защита, государственные меры, права детей, защита от насилия, законодательство Узбекистана, Детский кодекс, социальные услуги, деинституционализация.

Kirish

Ma'lum sabablarga ko'ra ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasi va turmush darajasini yaxshilash kabi masalalarni qamrab olgan huquqlarni ta'minlashda davlatning roli nihoyatda ahamiyatlidir ayniqsa o'zini ijtimoiy davlat sifatida e'lon qilgan mamlakat yetim va ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni hech bir holatda qorovsiz qoldirmaydi zarur bo'lgan tashkiliy va amaliy chora tadbirlarni koradi. So'ngi yillarda bolalar huquqlari sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirayotgan O'zbekistonda ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarga zarur shart sharoitlar yaratish kelgusida bu sharoitlarni yanada yaxshilash va takomillashtirish orqali ularga porloq istiqbol yaratishni ko'zlagan. Buni quidagilarda ko'rish mumkin. Misol uchun O'zbekiston 2030 strategiyasining birinchi yo'nalishi bo'lgan har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratishga doir bir qator ijtimoiy chora tadbirlar rejalashtirilgan. Umuman olganda yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotida yetim va ota-onasi vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni jamiyatga faol integratsiyalashda samarali ijtimoiy oila siyosatini yuritilayotganligini alohida qayd etish zarur.

Xususan mehribonlik uylaridagi tarbiyalanuvchilarni ota-ona qaramog'iga olishning barqaror ijtimoiy va rag'batlanuvchi mexanizmlari yaratilgan. Bundan tashqari yana shuni alohida takidlab o'tish kerakki mamlakatimizda yetim va ota-onasi vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalar va ijtimoiy xizmatlarga doir masalalar oltita vazirlikda tarqoq holatda edi ayni shu masalalar bo'yicha yagona davlat siyosatini yurutuvchi ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil qilindi. Ushbu agentlik faoliyatida yetim va ota-onasi vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarga oid masalalar ham ustuvor o'rin olgan xususan:

II. "Voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish yo'nalishida:

- bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- vasiylik va homiylik tizimini takomillashtirish, shu jumladan oilaga asoslangan bolalarni parvarish qilishning muqobil shakllarini rivojlantirish;
- farzand asrab olish tizimini takomillashtirish;

–ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishni tashkil etish;

–himoyaga muhtoj bolalarni davolashni tashkil qilish tizimini takomillashtirish.”¹

Yetim bolalalarning huquqlarini himoya qilishning qonuniy asoslari umuman olganda, qonunlar, tizimlar, va pradseduralar orqali amalga oshiriladi ushbu uch omil o‘rtasida o‘zaro farq kuzatilinishi mumkin. Ammo ular odatda ta’lim, tibbiyot va boshqa sohalarida yetim bolalarga himoya va qo‘llab quvvatlashni ta’minlashga oid bo‘lib ularning to‘g‘ri tarzda yashashi maslahat berishlari tibbiy va ta’lim muhitiga qo‘llanishlari kabi mavzularga bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunda zamonaviy dunyo sharoitida muhim masalalardan biri bu voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ular jumlasiga ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish ham kiradi. Albatta, sohada mavjud bo‘lgan muammolar bevosita huquq asoslarini takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekistonda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan, mensimaslik, shafqatsizlik, qo‘pollik, insoniy qadr-qimmatni kamsituvchi muomala, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan himoya qilish, milliy me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, aholi o‘rtasida huquqiy savodxonligini oshirish orqali muhim islohotlar boshlandi. Majburiy bolalar mehnatidan foydalanish tugadi. Ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni, shuningdek, nogiron bolalarni internatlarga joylashtirishni kamaytirish va oldini olish maqsadida bolalarni deinstitutionalizatsiya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mahalliy va milliy darajadagi siyosatni ishlab chiqishda bolalar va yoshlarni o‘z manfaatlariga ta’sir qiladigan qarorlarni qabul qilishda ularning fikrini inobatga olgan holda jalb qilish amaliyoti va mexanizmlarini kuchaytirish zarur, bu bolalar va yoshlarning jamiyatdagi ishtiroki uchun huquqiy bazani kengaytiradi. Bu, o‘z navbatida, tinglash va jamoatchilik fikrini shakllantirishda ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Yetim bolalarni huquqlarni ta’minlashda ko‘p muamolar bo‘lishi mumkin ba’zi muamolar quidagilardan kelib chiqadi:

1. Yetim hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarnikonstitutsiyaviy maqomi bu qonun hujjatlarda begilangan huquqlar, erkinliklar, majburiyatlar huningdek ularni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy va huquqiy kafolatlari majmuidir

2. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola deganda, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan, cheklanganligi, bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi, yoxud muomala layoqati cheklanganligi bolani tarbiyalashdan yoxud, uning huquq va majburiyatlarini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-6624639>

himoya qilishdan bo'yin tovlaganligi, shu jumladan uzrli sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasi va shunga o'xshash muassasalaridan olishdan bosh tortganligi yoxud ota-ona qaramog'i mavjud bo'lmagan boshqa holatlar sababli jumladan uzoq muddat bo'lmaganligi sababli ota-ona yoki yagona ota (ona) qaramogidan mahrum bo'lgan bola.

3. Yetim bolalar to'g'risidagi qonunchilik sohasi qonun emas, qonunosti hujjatlar bilan tartibga solingan. Biroq ushbu soha qonun darajasida tartibga solish zaruratini taqozo etmoqda.

Bolalar qonunchiligini muvofiqlashtirish maqsadida **"Bolalar kodeksi"** qabul qilish taklif etiladi. Kodeksga quyidagi takliflar kiritilishi mumkin: taklif etilayotgan qonun hujjatida bolalar va yetim bolalarning huquqlari aniq belgilash va ularning huquqlarini buzilishiga qarshi chora-tadbirlar kuchaytirilishi nazarda tutilishi lozim. Bundan tashqari, yetim bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan bir qancha dasturlarni joriy etish lozim. Jumladan, yetim bolalarga ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmat va kasb-hunar o'rgatish bo'yicha ko'proq imtiyozlar ajratish va ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash uchun qo'shimcha mablag'lar ajratish nazarda tutilishi mumkin. Keying masala bu yetim bolalarni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni yaratish hisoblanadi. Yetim bolalar yoki ota-ona vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalar bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va oliy o'quv yurtlarining imkoniyatlarini kengaytirish uchun mablag' va infratuzilma ajratish bo'yicha loyihalar ishlab chiqishni nazarda tutish lozim.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-6624639>